

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Karimov Bobir “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
2. Kulbekova Nasiba INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
4. Узакова Зарина ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
5. Dulanbayeva Oygul MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
6. Hojiyev Zavqiddin DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
7. To‘raev Odiljon AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
9. Abdikadirova Nigora INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
10. Tadjikhojaev Botir DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
11. Xolmurodov G‘ulom O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
12. Axmedova Shaxnozaxon OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

To'raev Odiljon,

O'zMU mustaqil izlanuvchisi,
sotsiologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

АХОЛИ САЛОМАТЛИГИНИ САQLASH ORQALI IJTIMOY XAVFSIZLIKNI ТА'МИНЛАШНИНГ УСТУВОР YO'NALISHLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132696>

ANNOTATSIYA

Sog'liqni saqlash mamlakatning halqaro darajadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy imidjini, ya'ni, sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari orqali aholi madaniyati va farovonlik darajasi, turmush sifati xususida xulosa chiqarish mumkin. Maqolada ijtimoiy davlatga transformatsiya sharoitida tibbiyot sohasida kuzatilayotgan tendensiyalarning sotsiologik tahlili yoritilgan bo'lib, ushbu tendensiyalarning aholi salomatligini saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga ta'siri yuzasidan fikrlar bildirilgan. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va boshqarishga oid xalqaro va mahalliy ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili asosida ijtimoiy xavfsizlik kesimida tibbiyot bilan bog'liq milliy manfaatlar tasniflangan, ularni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi omillar sotsiologik tadqiqot usullari orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sotsiologik tadqiqotlar, ijtimoiy xavfsizlik, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy tuzilmalar, kasallanish ko'rsatkichlari, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'i, empirik ma'lumot.

Тураев Одилжон,

самостоятельный соискатель НУУз,
доктор философии (PhD)
по социологическим наукам, доцент

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПУТЕМ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Здравоохранение определяет политический, экономический и социальный имидж страны на международном уровне, то есть через показатели здоровья можно сделать выводы о культуре и уровне благосостояния населения, качестве жизни. В статье представлен социологический анализ тенденций, наблюдаемых в медицинской сфере в условиях перехода к социальному государству, а также обсуждено влияние этих тенденций на проводимые реформы в системе здравоохранения. Также были классифицированы национальные интересы в контексте социальной безопасности, связанные со здравоохранением. Более того, с использованием методов социологического исследования проанализированы факторы, препятствующие обеспечению этих интересов.

Ключевые слова: социологические исследования, социальное обеспечение, система здравоохранения, социальные структуры, показатели заболеваемости, сеть учреждений медицинского обслуживания, эмпирические данные.

Turayev Odiljon,
Independent researcher of NUUZ,
Doctor of Philosophy (PhD)
in Sociological Sciences, Associate Professor

PRIORITY DIRECTIONS FOR ENSURING SOCIAL SECURITY BY PROTECTING PUBLIC HEALTH

ABSTRACT

Health determines the political, economic and social image of the nation at the international level. The article presents a sociological analysis of trends observed in the field of medicine in the context of the transformation to a social state, and expresses opinions on the impact of these trends on the reforms being carried out in the public health system. Also, national interests related to medicine are classified in the context of social security. Moreover, the factors hindering their provision are analyzed using sociological research methods.

Keywords: sociological research, social security, health care system, social structures, morbidity indicators, network of medical service institutions, empirical data.

KIRISH

Sogʻliqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarning joriy ustuvor yoʻnalishlari oʻtgan davrdagiga qaraganda farq qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan sogʻliqni saqlash ijtimoiy islohotlarning markazida boʻlib, “Aholi salomatligi – 2030” milliy strategiyasi doirasida aholining salomatlik koʻrsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan yangi model yaratildi. Bizning nazarimizda sogʻliqni saqlashning avvalgi tashkiliy modeli xato yoki samarasiz boʻlgan, deb taʼkidlash notoʻgʻri boʻladi. Aksincha, oʻz davri uchun muhim ahamiyat kasb etib, u tibbiy savodxonlik oshirishga, aholining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga va chekka hududlarni tibbiy infratuzilma va malakali tibbiy kadrlar bilan tanimlashga xizmat qildi. Milliy sogʻliqni saqlash tizimining huquqiy asosi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xizmat qiladi. Xususan, 48-moddada har kim malakali tibbiy xizmat olish huquqiga ega ekanligi belgilangan [1].

Sogʻliqni saqlash tizimi Oʻzbekistonning eng katta oʻziga xos ijtimoiy sohalardan biri boʻlib, unda 500 mingga yaqin aholi bandligi taʼminlangan. Ulardan 105,7 ming nafari shifokorlar boʻlsa, 370 mingdan ortigʻi hamshiralar hisoblanadi [2] (2024-yil yanvar holatiga koʻra).

Milliy sogʻliqni saqlash tizimining huquqiy asosi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xizmat qiladi. Xususan, 48-moddada har kim malakali tibbiy xizmat olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Ushbu norma konstitutsion islohotlar negizida takomillashtirilib, fuqarolarning tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini olish huquqi, davlat tomonidan davlat va nodavlat sogʻliqni saqlash tizimini, tibbiy sugʻurtani, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni taʼminlashi sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish kabi bandlar bilan boyitildi. Ushbu bandlarning kiritilishi aholining salomatlikka oid ijtimoiy huquqlarining kafolatlashga xizmat qiladi.


Sogʻliqni saqlash mamlakatning halqaro darajadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy imidjini, yaʼni, sogʻliqni saqlash koʻrsatkichlari orqali aholi madaniyati va farovonlik darajasi, turmush sifati xususida xulosa chiqarish mumkin. Sogʻliqni saqlash omilining ijtimoiy xavfsizlikni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etib, ijtimoiy davlatga transformatsiya sharoitida sohadagi xavfsizlik holatini baholashdan oldin ijtimoiy xavfsizlikni taʼminlashdagi shaxsning manfaatini belgilab olish maqsadga muvofiq. Shaxsning manfaatlari uning huquqlarini taʼminlash bilan bogʻliq boʻlib, u oʻz vaqtida hamda sifatli tibbiy xizmat va yordamlardan foydalanish imkoniyatlariga ega boʻlishda oʻz aksini topadi.

O'zbekistonda shaxsning ushbu manfaatini ta'minlashda sog'liqni saqlash tizimining oliy maqsadi sifatida aholining barcha qatlamlarini o'z vaqtida samarali va sifatli sanitar-tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish va bunda ularning moliyaviy qiyinchiliklarni his qilmasligi uchun sharoit yaratish belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sohadagi islohotlar yuqoridagi maqsadlar doirasida amalga oshirilib, quyida ularning joriy holati va samaradorligini bilan bog'liq tahlillarni ko'rib chiqamiz.

2020-yil davomida sog'liqni saqlash sohasi rivoji uchun davlat byudjetidan 14,8 trln. so'm yoki 2019-yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p mablag' ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda davlat byudjetiga nisbatan 11%ga teng mablag'lar sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirildi. 2030-yilga kelib 15% gacha yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu rejaning ijrosini ta'minlash yuzasidan 2025-yilda sog'liqni saqlash tizimiga davlat byudjetidan 41,5 trln. so'm yo'naltirilgan bo'lib, uning 78,4% qismi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun sarflanishi ko'zda tutilgan. Moliyalashtirish ko'rsatkichlarining o'sishi o'z navbatida, mamlakatimizdagi shifoxonalar sonining dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Xususan, mamlakatimizda shifoxonalar soni 1991-yilda 1388 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib tibbiy muassasalarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash bilan bog'liq muammolar hamda ularni markazlashtirish natijasida bu ko'rsatkich 1162 tagacha qisqargan. 2024-yil yanvar oyiga kelib shifoxonalar soni 1432 taga yetdi. 2019-2023-yillar davomida o'rtacha o'sish su'rati 4.2% ni tashkil qilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida shifoxonalar sonining o'zgarish tendensiyasi (1990-2023-yillar qiyosiy tahlil)


ASOSIY QISM

1991-yil bilan qiyoslaganda aholi soni qariyb ikki barobarga oshganligiga qaramasdan, shifoxonalar soni 4,5% ga oshgan. Hozirda mavjud shifoxonalarining 50% dan ortig'i xususiy shifoxonalar hisoblanadi [3]. Aholining tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlari bevosita tibbiy ko'rsatkichlarga bog'liq.


Mamlakatimizdagi shifokorlar soni ham muassasalar soniga mos ravishda ortib, 2020-yil 1-yanvardan 2024-yilgacha 91.9 ming kishidan 105.7 ming kishiga yetgan.

Mamlakatimizda ambulator-poliklinikalar soni esa, shifoxonalar soniga oid tendensiyadan farqli ravishda 1990-2020-yillarda o'sib borgan. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda tibbiyotning birinchi bo'g'iniga e'tibor kuchaytirilganligi bilan bog'liq. Ya'ni sog'liqni saqlash yo'nalishidagi davlat siyosatida kasallikni davolashga emas, uning oldini olishga bo'lgan e'tibor birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Natijada ambulator-poliklinikalar soni 1990-yilda 3139 ta bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib deyarli ikki barobarga ko'payib 6031 tani tashkil qilgan (2-rasm).

Shifoxonalardagi o'rinlar soni ham shifoxonalar sonining kamayish fonida mustaqillikning dastlabki davrida qisqarganligini kuzatish mumkin. Xususan, 1990 yilda 254,9 ming o'rin bo'lgan bo'lsa, o'shbu ko'rsatkich 2020-yilda 160,1 mingni tashkil qilgan. Shifoxonalarining kamayish tendensiyasi 2015-yilgacha davom etgan, bunga mos ravishda o'rinlar soni 2015-yilda 129,7 minggacha kamaygan. 2016 yildan sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning jadallashishi natijasida shifoxonalardagi o'rinlar soni o'sib bormoqda (3-rasm).




2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ambulator-poliklinikalar sonining o‘zgarish tendensiyasi



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida shifoxonalardagi o‘rinlar sonining o‘zgarish tendensiyasi (ming dona)

Shuningdek, 2019-yilda mavjud davlat tibbiyot muassasalarida 153,4 ming bemorlar uchun o‘rin bo‘lgan bo‘lsa, aholi uchun davlat tibbiyot muassasalarida bemor o‘rinlar soni barqaror o‘sib borishi natijasida ular soni 21,1 mingga ko‘payib, 2024-yil yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 174,5 ming o‘rinni tashkil qilgan [4] (4-rasm).




4-rasm. O‘zbekistonda shifoxona muassasalarida bemor o‘rinlari soni (2020-2023-yillar kesimida, ming dona)

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimi uchun 11 ta oliy tibbiy o‘quv yurtlari shifokorlarni tayyorlab bersa, 400 dan ortiq tez tibbiy yordam stansiyalari aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining xizmat ko‘rsatish salohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tizim har yili 7 mlnga yaqin bemorga statsionar 1 mln ortiq bemorga ambulator tibbiy xizmat ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, yiliga o‘rtacha 1 mlnga yaqin bemorga jarrohlik operatsiyasi amalga oshiriladi. Homilador ayollar uchn 17,3 ming o‘rin mavjud bo‘lib, ularda yiliga o‘rtacha 1 mlnga yaqin chaqaloqlar dunyoga keladi. Aholiga tez tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun yiliga o‘rtacha 11 mlndan ortiq chaqiriqlar bo‘ladi [5].

Xususan, 2022-yilda respublikamizdagi 1328 ta shifoxonalardagi 166800 o‘rinlarda 6952500 nafar bemorlar statsionar tibbiy yordam olishgan bo‘lsa, ularning 6097000 nafari 565 ta sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat shifoxonalardagi 123 300 shifo o‘rinlarida davolangan bo‘lib, ularning 1 mlndan ortig‘ida jarrohlik amaliyoti bajarilgan. Har 100 nafar aholidan 17,3 nafari bir yil davomida shifoxonada davolangan. Umumiy hisobda yiliga 8,5 mln aholi davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlardan foydalanmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, tibbiyot sohasining YaIMga nisbatan moliyalashtirilishi 5% atrofida bo‘lishi, farmasevtika tarmog‘iga nisbatan esa, 1,5% bo‘lishi me‘yor sifatida belgilangan [6]. Ushbu tavsiyalar kesimida qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, 2024-yilda mamlakatimizdagi ko‘rsatkichlar mos ravishda 2.9% va 0.33%ni tashkil qilgan (5-rasm). Shu bilan birga, sohada ko‘rilayotgan keng ko‘lamdagi chora-tadbirlarga qaramay, tizimda ba‘zi kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, tumanlar, chekka qishloqlardagi fuqarolar tibbiy xizmatdagi jiddiy va tub o‘zgarishlarni o‘z hayotida sezmayotganligi davlat rahbari tomonidan ham bir necha barobar ta‘kidlab o‘tilgan. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi, tuman markaziy shifoxonalarining moddiy-texnik bazasi va malakali kadrlar bilan ta‘minlanish darajasi bilan bog‘liq muammolar sababli olis hududlardagi bemorlar mablag‘ sarflab, markazga kelishga yoki chet davlatlarga borishga majbur bo‘lmoqda.




5-rasm. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimi va farmasevtika tarmog‘ining moliyalashtirilishi (YaIMga nisbatan JSST tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra)

Sohada demografik ko'rsatkichlarga mos ravishda tibbiyot xodimlarining yetishmasligi ham kuzatilmoqda. Xususan, 2010-yilga nisbatan har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni o'rtacha 18 foizga kamaydi, bu, o'z navbatida, ba'zi viloyatlarda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Sohaning kadr ta'minoti bilan bog'liq muammolardan yana biri tibbiy ta'lim sifati bilan bog'liq. Bu, o'z navbatida, kadrlarning zamonaviy diagnostika, davolash va dori vositalaridan foydalanish malakasiga ta'sir qilishi ortidan aholining salomatlik ko'rsatkichlarining mustahkamlashga to'sinlik qiladi hamda o'z natijasini o'lim strukturasi, onalar va bolalar o'limi ko'rsatkichlarida aks ettiradi.

Ushbu muammoni bartaraf qilish uchun 2019-yil 18-sentyabrda qabul qilingan hukumat qarori bilan tibbiyot xodimlarining chet elda malakasini oshirishni moliyalashtirish mexanizmlari takomillashtirildi. Buning natijasida 2017-2019-yillar davomida 600 dan ortiq shifokorlar Rossiya Federatsiyasida malaka oshirdi [7]. Shuningdek, hududlarda shifokorlar yetishmasligini bartaraf etish uchun 2018-yilda Surxondaryo viloyatida Toshkent Tibbiyot akademiyasining Termiz filiali ochildi. Bundan tashqari, tibbiy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul parametrlarini shakllantirishda hududiy mezonga amal qilish yo'lga qo'yildi.

“Buyuk Kelajak” nodavlat notijorat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, aholi davlat tibbiy xizmatlari uchun xarajatlarning qariyb 40 foizini o'z hisobidan to'laydi. Aholi tomonidan sarflanadigan davlat va xususiy tibbiy xizmatlar uchun xarajatlarni qo'shib hisoblaganda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 70-80 foizga yaqinlashishi mumkin. Shu bilan birga, sotsiologik so'rov natijalari kasalxonada 8-10 kungacha bo'lgan davolanish bemorga o'rtacha 300-600 AQSh dollariga teng ekvivalentdagi mablag'ni talab qiladi. Bu o'rtacha hisoblangan oylik ish haqiga nisbatan yuqori.

Xususan, Statistika agentligining ma'lumotiga ko'ra, aholining o'rtacha daromadlari 2023-yilda 2016-yilga nisbatan 368 foizga oshgan bo'lsa-da, ammo oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'sishi, byudjet tashkilotlaridagi oylik ish haqining o'sishi, inflyatsiyaning darajasi bir-biriga nomutanosib darajada o'sayotganligini ko'rsatmoqda (6-rasm).



*2015-2016 yil uchun ma'lumotlar O'zbekistonda AQSh dollarining norasmiy bozor kursiga oid.
Manba: <https://dollaruz.pw>.

6-rasm. Narxlar va aholi daromadlari kumulyativ o'sishi (2016-yilga nisbatan foizda)

Shu bilan birga, O'zbekistonda 2024-yil davomida 174413 kishi vafot etgan bo'lsa, o'lim sabablari tahlili shuni ko'rsatmoqda-ki, har 100 ming kishiga nisbatan qon aylanish tizimi kasalliklaridan vafot etish ayollarda 247,9 tani, erkaklarda esa biroz baland bo'lib, 292,6 tani tashqil qilmoqda (jami o'limning 57,6%). O'simtalardan o'lim ko'rsatkichi esa, ayollarda 46,5 tani, erkaklarda 41,4 tani tashkil qilgan (jami o'limning 9,4%). Bundan tashqari, 40-64 yoshdagi aholining 30% da yurak qon tomir kasalligi rivojlanish xavfi yuqori bo'lib, bu quyidagilar bilan bog'liq:

1. Sabzavot va mevalar iste'molining meyoridan kamligi – 67,2%.
2. Jismoniy faollikni kunlik darajasining pastligi – 16,4%.
3. Tamaki mahsulotining iste'moli (erkaklarda) – 33,4% (2,4 mln sigaret, 2,1 mln nos).
4. Spirtli mahsulotlar iste'moli – 18,7% (erkaklarda – 30,7%).
5. Qon bosimining yuqori bo'lishi – 27,8%.
6. Qonda glyukoza miqdorining meyordan balandligi – 9%.
7. Qonda xolesterin miqdorining meyordan balandligi – 46,3%.

Aholining kasallanish ko'rsatkichlari bir tomondan sog'liqni saqlash tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan farmasevtika sohasining rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Bundan tashqari, farmasevtikaning rivojlanishi davlatning nafaqat ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar bilan bog'liq tahdidlarni bartaraf qilishga, balki iqtisodiy foyda keltirishi orqali barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu sohada onkologik, sil, narkologik, OITS, qandli diabet kabi ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan kasalliklarni davolash va profilaktikasiga oid dori vositalar, vaksinalar, qon zardoblari, diagnostik buyumlar kabi mahsulotlarni ishlab chiqarishning mahalliylik darajasi pastligacha saqlanib qolmoqda. Xususan, tibbiy amaliyotda ishlatishga ruxsat berilgan dori vositalari 73% qismi, qo'llashga ruxsat berilgan tibbiy buyumlarning 84% qismi, alohida ruxsatsiz qo'llash mumkin bo'lgan tibbiy buyumlarning 95,5% qismi import evaziga qoplanmoqda [8, 9] (1-jadval).

1-jadval

Farmasevtika bozoridagi xorijiy va mahalliy mahsulotlarning qiyosiy tahlili

Farmasevtika mahsulotlari guruhlar	Jami mahsulot soni	Shundan, mahalliy ishlab chiqarilgan	Shundan:		Tafovut (barobarda)
			Xorijiy mahsulot ulushi	Mahalliy mahsulot ulushi	
Tibbiy amaliyotda ishlatishga ruxsat berilgan dori vositalari soni	9736	2634	73%	27%	2,7
Qo'llanishga ruxsat berilgan tibbiy buyumlar soni	1759	284	84%	16%	5,25
Ruxsatsiz qo'llaniladigan tibbiy buyumlar soni	1666	78	95,5%	4,5%	21,2

Farmasevtika sohasini rivojlantirish agentli ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda farmasevtika sohasida 234 ta ishlab chiqaruvchilar, 526 ta taqsimlovchilar mavjud. Ishlab chiqaruvchilarning 82 nafari (35,4 %) dori preparatlarini, 115 nafari (49,15 %) tibbiy buyumlarni va 37 nafari (15,81 %) tibbiy texnikalarni ishlab chiqarmoqda.

Mamlakatimizda 21068 turdagi farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarilayotgan bo'lib, ularning 19912 (94,51%) xili dori preparatlari, 1014 (4,81%) turdagi tibbiy texnika va 142 (0,67%) turdagi tibbiy buyumlar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

2024-yil davomida respublika hududiga jami qiymati 1 mlrd 422,2 mln AQSh dollariga (2023-yil davomida 1 mlrd 422,1 mln) teng 34,7 ming (27,6 ming) tonna dori vositalari import qilingan [10]. 2024-yil davomida, O'zbekiston aholisi dori vositalari sotib olish uchun 15,5 trln so'mdan ko'proq pul sarflashgan. Bu oziq-ovqat mahsulotlarining xarididan keyingi ikkinchi ko'rsatkichni tashkil qilmoqda.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, respublikada 15253 ta dorixonalar faoliyat ko‘rsatib, so‘nggi besh yil ichida ularning 4,5 mingga ko‘paydi va hozirda har 2400 nafar aholiga bitta dorixona to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda farmasevtika sohasida ekspertlar tomonidan 5-12 % deb baholanilayotgan yashirin iqtisodiyot natijasida qo‘lbola usulda “yashirin sex”larda dori vositalarining ishlab chiqarilayotganligi hamda dori vositalarini go‘yoki shaxsiy ehtiyoji uchun olib kirayotgan “tashimachi”lar keyinchalik ularni davlat ro‘yhatidan o‘tkazmasdan sotuvga chiqarishi aholi salomatligiga tahdidlarni yuzaga keltirmoqda.


Bunda farmasevtika sohasida xalqaro maqomga ega laboratoriyalarni rivojlantirish orqali mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarish qo‘llab-quvvatlash mumkin. Tahlillarga ko‘ra, xalqaro farmasevtikaning ilmiy yutuqlaridan keng foydalanish orqali farmsanoatni rivojlantirish va natijada dori-darmon vositalari importini 85-90% dan 15-20% ga qadar kamaytirish imkoniyati mavjud.

O‘zbekistonda zamonaviy farmasevtika klasterlarini rivojlantirishga quyidagi omillar salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda:

- chet el mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi;
- farmasevtika maxsulotlarini markirovkalash tizimidagi bo‘shliqlar;
- zarur moddiy texnik baza va tibbiy asbob-uskunalarga bo‘lgan ehtiyoj;
- milliy dori vositalariga nisbatan salbiy jamoatchilik fikri;
- kadrlar tayyorlash tizimida ilmiy-o‘quv komponentlarining nisbatan past rivojlanganligi;
- ushbu sohada chet el tajribasi va tashqi investitsiyaga qaramlik.

O‘zbekistonda zamonaviy farmasevtika klasterlarini takomillashtirish orqali kelgusi 5 yil davomida dori vositalari importi kamaytirib, mahalliy dori vositalarining mamlakat ehtiyojini 60% dan oshig‘ini qondirishga erishish mumkin.

Shuningdek, mavzu yuzasidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot davomida dori-vositalarining realizatsiyasi bilan bog‘liq muammolar (taqchilligi, samarasizligi, xarid qilish imkoniyatlarining cheklanganligi) qishloqlarda, tuman markazlarida hamda e‘tiborli jihati, Toshkent shahrida ham tez-tez uchrab turishi respondentlar tomonidan ta‘kidlangan [11] (7-rasm).



7-rasm. Hududlarda aholining dori vositalarining realizatsiyasi bilan bog‘liq muammolarga duch kelish darajasi

Bu ma‘lum ma‘noda dori vositalari, tibbiyot byumlari vaksina va bakteriologik hamda boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega preparatlar xaridi uchun ajratilayotgan mablag‘larning nisbatan kamligi bilan ham bog‘liq. Xususan, 2024-yilda 3.8 trln so‘mga yaqin mablag‘ ajratilgan bo‘lib bu, YaIMga nisbatan 0,33%ni tashkil qilgan.

XULOSA

Umuman olganda, aholi salomatligini mustahkamlashda yuqoridagi bayon qilingan risk va tahdidlarni bartaraf etish yuzasidan hukumat tomonidan faol siyosat olib borilib, 2024-2030-yillar uchun “Aholi salomatligi – 2030” milliy strategiyasi doirasida ularni bartaraf etish bo‘yicha 12 ta yo‘nalish kesimida 70 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish ko‘zda tutilib, istiqbolda aholi salomatlik ko‘rsatkichlari yanada mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlarini mustahkamlash orqali davlatning xalqaro imidjini, turmush sifati va farovonligini, inson kapitalini yanada oshirishga erishish mumkin. Bu albatta ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Strategik rejalashtirish va ahborot-tahlil boshqarmasi ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
4. https://stat.uz/img/uz_zdravookhraneniya_2024-tayor_p69757.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmasevtika agentligining 2023-2024-yillar uchun ma’lumotlari.
6. Кайгородцев А.А. Оценка состояния социальной безопасности России // Вестник МФЮА. 2019 № 2. – С.72-85.
7. Davlat bojxona qo‘mitasining 2023-2024-yillar uchun ma’lumotlari.
8. https://stat.uz/img/uz_zdravookhraneniya_2024-tayor_p69757.pdf
9. Muallif tomonidan 437 nafar respondentlar ishtirokida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmasevtika agentligining 2023-2024-yillar uchun ma’lumotlari.
11. Muallif tomonidan 437 nafar respondentlar ishtirokida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000